



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI TOSHKENT
SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

TOSHKENT SHAHRIDA
CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI




Dastlabki ma'lumot
2024-yil yanvar-noyabr

*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi*
Тел. 71-203-88-20(21)

(* Toshkent shahri savdo ko'rsatkichlarida
yashirin iqtisodiyotni hisobga olgan holda)

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruvin qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari o'sish sur'atlari (2024-yil yanvar-noyabr oyi, foizda)



2024-yil 1-dekabr holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 13 655 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 181 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 13 474 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatgichlariga kiritilgan

Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024-yilning yanvar-noyabr oylarida Toshkent shahrining chakana savdo tovar aylanmasi 85 628,4 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 110,8 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 35 891,5 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 110,2%), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 49 736,9 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 111,2 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 2 257,9 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 119,5 %) tashkil etdi.

Hududlar bo'yicha chakana savdo hajmi va o'sish sur'atlari (2024-yil yanvar-noyabr oy)


	Jami, mlrd. so'm	2023-yil yanvar-noyabr oyiga nisbatan, foizda
Toshkent shahri	85 628,4	110,8
<i>tumanlar:</i>		
Uchtepa	7 883,2	112,5
Bektemir	3 180,4	114,0
Yunusobod	8 458,0	112,8
Mirzo Ulug'bek	6 904,8	115,5
Mirobod	6 489,8	107,4
Shayxontohur	9 280,3	106,2
Olmazor	6 141,0	107,9
Sirg'ali	4 014,4	133,7
Yakkasaroy	6 865,5	115,9
Yashnobod	7 271,5	119,4
Yangihayot	1 334,7	121,8
Chilonzor	14 392,7	100,6

2024-yilning yanvar-noyabr oylarida 2023-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan Toshkent shahrining Sergeli (133,7 %), Yangihayot (121,8 %) va Yashnobod (119,4 %) tumanlarida chakana savdo Tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

(* Toshkent shahri savdo ko'rsatkichlarida yashirin iqtisodiyotni hisobga olgan holda)

**Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati
dinamikasi (yanvar-oktabr, mlrd so'mda)**

103,2 % 115,8 % 113,2 % 111,4 % 110,8 %



So'nghi 5 yillikda (2020–2024-yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2021-yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2020-yilning mos davriga nisbatan 115,8 % ni tashkil qildi.

**2024-yil uchun chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati,
oylar kesimida (foizda)**



2024-yilning yanvar-noyabr oylarida o'sish sur'ati **110,8 %** ni tashkil qildi.

HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI VA ULUSHI

4

(Ulushi, foizda)




Toshkent shahrida chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Chilonzor tumani 17,5 % bilan 14 392,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Toshkent shahrida chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Yangihayot tumani 1,6 % bilan 1 334,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2023-yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.

Hajmi, mlrd. so 'm



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega tumanlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2024-yilning yanvar-noyabr oylarida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 49 736,9 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 10,8 % ga oshdi. Toshkent shahri miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 58,1 % ni tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2023-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 10,2 % ga o'sdi va 35 891,5 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 41,9 % ulushiga to'g'ri keldi.


115,9	Mirobod
118,5	Bektemir
121,4	Olmazor
127,0	Mirzo Ulug'bek
130,9	Chilonzor
137,3	Yangihayot

Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega tumanlar (foizda)

105,9	Yangihayot
107,2	Shayxontohur
119,9	Uchtepa
126,5	Yunusobod
131,7	Yakkasaroy
143,8	Yashnobod
6,9m.	Sergeli



CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)




Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Chilonzor (21,3%), Uchtepa (13,6%) va Yunusobod (10,4 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 43,1 % ni tashkil etib, eng kata ulush Shayxontohur (13,9 %), Chilonzor (12,1%), Yakkasaroy (11,4 %), Yashnobod (11,3%) tumanlarida kuzatildi.

41,9 %



58,1 %



Yirik korxonalar



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik



(Hududlar kesimida ma'lumot, ming so'mda)

Toshkent shahri

27 909,3

Yangihayot

7 435,6

Uchtepa

26 242,4

Chilonzor

52 185,2

Bektemir

50 967,6

Yunusobod

22 275,4

Mirzo Ulug'bek

20 710,3

Mirobod

42 417,2

Shayxontohur

25 293,9

Olmazor

15 081,0

Sirg'ali

23 600,5

Yakkasaroy


50 555,7

Yashnobod

23 927,4

2024-yilning yanvar-noyabr oylari holatiga o'ttacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 27 909,3 ming. so'mni 2023-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 108,0 %) tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Chilonzor (52 185,2 ming. so'm), Bektemir (50 967,6 ming. so'm) va Yakkasaroy(50 555,7ming. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati (2024-yil yanvar-noyabr), foizda



Dehqon bozorlari



Chorva bozorlari

UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdag'i qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rirlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo hajmi va o'sish sur'atlari (2024-yil yanvar-noyabr)

	Jami, mlrd. so'm	2023-yil yanvar- noyabr oylariga nisbatan, foizda
Toshkent shahri	2 257,9	119,5
<i>tumanlar:</i>		
Uchtepa	88,4	51,8
Bektemir	477,2	80,6
Yunusobod	361,6	187,8
Mirzo Ulug'bek	281,5	93,0
Mirobod	22,1	25,9
Shayxontohur	341,9	170,8
Olmazor	94,4	2,0 m.
Sirg'ali	66,5	92,4
Yakkasaroy	44,8	79,8
Yashnobod	215,0	183,1
Yangihayot	-	-
Chilonzor	264,5	5,3 m.

* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shмаган holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (2024-yil yanvar-noyabr)



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm (2024-yil yanvar-noyabr)

Toshkent sh.	2 257,9
Uchtempa	88,4
Bektemir	477,2
Yunusobod	361,6
Mirzo Ulug'bek	281,5
Mirobod	22,1
Shayxontohur	341,9
Olmazor	94,4
Sirg'ali	66,5
Yakkasaroy	44,8
Yashnobod	215,0
Yangihayot	-
Chilonzor	264,5

Toshkent shahari bo'yicha 2024-yilning yanvar-noyabr oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 2 257,9 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 119,5 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 2 026,0 mlrd.so'mni (137,1 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 231,9 mlrd so'mni (108,7 %) tashkil etdi .

2024-yilning yanvar-noyabr oylarida Toshkent shahrining barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 2 026,0 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (1 103,9 mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari 1 103,9 mlrd. so'm  48,9 %	Non va non mahsulotlari 250,3 mlrd. so'm  11,1 %	Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar) 95,0 mlrd. so'm  4,2 %
Tovuq go'shti 87,7 mlrd. so'm  3,9 %	Quritilgan qishloq xojaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar) 50,1 mlrd. so'm  2,2 %	Tuxum 48,8 mlrd. so'm  2,2 %
Ziravorlar 129,5 mlrd. so'm  5,7 %	Sut va sut mahsulotlari 163,4 mlrd. so'm  7,2 %	Chorva mollari va parrandalari uchun har xil vem – xashak 0,2 mlrd. so'm  0,01 %
Tuzlamalar 52,5 mlrd. so'm  2,3 %	Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari 42,3 mlrd. so'm  1,9 %	Nooziq-ovqat tovarlar 2,4 mlrd. so'm  0,1 %

2024-yilning yanvar-noyabr oylarida, Toshkent shahrining Bektemir va Olmazor tuman hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 231 925,1 mln. so'mni (108,7 %) tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 193 919,8 mln. so'm, qo'y va echkilar – 29 864,6 mln. so'mni, otlar – 7 573,7 mln. so'mni, parrandalar – 566,9 mln. so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi

2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar 116 596,3 mln. so'm  5,2 %	1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar 33 973,2 mln. so'm  1,5 %	1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar 43350,4 mln. so'm  1,9 %
Qo'yilar 23 847,1 mln. so'm  1,1 %	Otlar 7 573,7 mln. so'm  0,3 %	Echkilar 6 017,5 mln. so'm  0,3 %
Kurka, o'rdak, g'oz 135,9 mln. so'm  0,01 %	Tovuqlar 60,8 mln. so'm  0,003 %	Quyonlar 232,9 mln. so'm  0,01 %
Qushlar 137,0 mln. so'm  0,01 %	      	

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2024-yil 1-dekabr holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 4 946 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 46 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 4 900 tani tashkil qildi.

Hududlar kesimida umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi va o'sish sur'atlari (2024-yil yanvar-noyabr)

	Jami mlrd. so'm	2023-yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda
Toshkent shahri	23 649,5	113,4
<i>tumanlar:</i>		
Uchtepa	201,4	120,8
Bektemir	181,3	141,4
Yunusobod	1 253,7	108,1
Mirzo Ulug'bek	973,2	115,5
Mirobod	1 271,5	191,3
Shayxontohur	2 063,5	88,4
Olmazor	560,6	114,6
Sirg'ali	680,9	115,9
Yakkasaroy	857,3	107,8
Yashnobod	612,1	116,3
Yangihayot	158,9	150,0
Chilonzor	922,2	129,8

2024-yilning yanvar-noyabr oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 23 649,5 mlrd. so'mga yetdi. 2023-yilning mos davriga nisbatan 113,4 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 60,9 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.


Avtotransport vositalari va ularning ehtiyyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

(jismoniy shaxslar hisobga olinmagan holda)

	Hajmi, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
Toshkent shahri	54 438,7	100,0
<i>tumanlar:</i>		
Uchtepa	1 193,8	2,2
Bektemir	1 785,6	3,3
Yunusobod	7 524,7	13,8
Mirzo Ulug'bek	1 667,4	3,1
Mirobod	9 182,5	16,9
Shayxontohur	5 464,4	10,0
Olmazor	658,2	1,2
Sirg'ali	18 371,6	33,7
Yakkasaroy	3 020,4	5,5
Yashnobod	1 887,8	3,5
Yangihayot	1 199,0	2,2
Chilonzor	2 483,4	4,6


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Sirg'ali (18 371,6 mlrd. so'm), Mirobod (9 182,5 mlrd. so'm) va Yunusobod (7 524,7 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd. so'm)




2024-yilning yanvar-noyabr oylarida avtotransport vositalari va ularning ehtiyyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash* va *texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 54 438,7 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 37,8 % ga oshdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 17 674,7 mlrd. so'm (o'sish sur'ati – 144,9 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyetklari savdo hajmi – 36 764,1 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – 129,3 %) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'ati, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishslash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagи tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar qiymati.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, *mldr. so‘mda*



Toshkent shahari bo‘yicha 2024-yilning yanvar-noyabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 201 666,5 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 9,0 % ga o‘sdi.

Savdo aylanmasi va ulushi

34,0 %

68564,8 *mldr. so‘m*

Yirik korxonalar

66,0 %

133101,6

Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 133 101,6 mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 108,4 % ga to‘g‘ri keldi. Toshkent shaharida ushu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 66,0 % ni tashkil qildi.

Ulgurji savdo aylanmasi hajmi va o'sish sur'atlari (2024-yil yanvar-noyabr)

	Jami mlrd. so'm	2023-yil yanvar- noyabr oylariga nisbatan, foizda
Toshkent shahri	201666,5	109,0
<i>tumanlar:</i>		
Uchtepa	9876,8	113,7
Bektemir	2911,0	124,0
Yunusobod	17221,3	109,4
Mirzo Ulug'bek	16155,8	120,3
Mirobod	19816,7	107,9
Shayxontohur	11110,5	106,0
Olmazor	23791,9	110,4
Sirg'ali	8900,4	103,1
Yakkasaroy	21114,6	110,4
Yashnobod	22108,8	106,0
Yangihayot	3438,4	107,7
Chilonzor	18466,6	101,2

2024-yil 1-dekabr holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 17 213 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 258 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 16 955 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlari ega eng yirik korxonalar Bektemir (124,0 %), Mirzo Ulug`bek (120,3 %) va Uchtepa (113,7 %.) tumanlarida kuzatildi.